# NUQSONLI TOVAR SOTILGANDA ISTE'MOLCHI TOVARNI BOSHQA MARKALI SHUNDAY TOVARGA ALMASHTIRIB OLISHI MUMKIN

**Nuqsonli tovar sotilganda iste'molchi tovarni boshqa markali shunday tovarga almashtirib olishi mumkin**

O’zbekiston Respublikasi “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida” qonunining 17-moddasiga asosan nuqsonli tovar sotilganda iste'molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o’tilmagan bo’lsa, o’z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli;

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;

tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish;

tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki nuqsonlarni bartaraf etishga qilingan xarajatlarni qoplash;

xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;

shartnomani bekor qilib, ko’rilgan zararni qoplash.

**Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo’limi nson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo’llash amaliyotini o’rganish bo’linmasi bosh maslahatchisi**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook | Telegram | Telegram murojaat | Youtube | Instagram
2023-05-15 18:21:26